

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA ICHKI AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNING ZAMONAVIY YECHIMI

Elyorbek Baxtiyor o'g'li Egamberdiyev

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Elyor_10397@mail.ru

Annotatsiya: *Audit – bu korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlovchi faoliyat turi bo'lib, ushbu faoliyatning vazifasi korxonalar faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlash va ularga yechim ko'rsatish, shuningdek, korxonada kutilayotgan tashqi hamda ichki iqtisodiy tahdidlarni oldini olishdan iborat. Ushbu maqolada korxonalar va tijorat banklarida ichki audit tahlilini o'tkazishning zamonaviy usullari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *audit, tashqi va ichki audit, ichki nazorat, aksiyadorlik jamiyatlar, tijorat banklari, buxgalteriya balans, aktiv, passiv, ichki audit xizmati, moliyaviy natijalar, FMEA.*

PROBLEMS OF IMPROVING INTERNAL AUDIT IN JOINT-STOCK COMPANIES AND THEIR MODERN SOLUTION

Abstract: *Audit is a type of activity that ensures the economic security of enterprises, the task of this activity is to identify shortcomings in the activities of enterprises and provide a solution to them, as well as to avoid the expected external and internal economic threats at the enterprise. This article covers modern methods for conducting internal audit analysis in enterprise and commercial banks.*

Keywords: *audit, external and internal audit, internal control, joint stock companies, commercial banking, balance sheet, asset, liability, internal audit service, financial results, FMEA.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik jamiyatlarida auditni rivojlantirish va takomillashtirish bosqichlari ilg'or davlatlar tajribasidan kelib chiqib amalga oshirilmoqda. Bu bosqichlarning asosiy negizi auditning rivojlanish tarixi bilan bog'liq bo'lib, korxonalar va tijorat banklarida ichki audit xizmatini tashkil topishi ham shu jarayonning yakuniy bo'g'inidir. Bugungi kunda mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit xizmatini yanada takomillashtirish dolzarb masalalardan biri bo'lib, korxonaning ichki faoliyatini doimiy nazorat qilish uchun juda muhim sanaladi. Shu o'rinda bir savol tug'iladi: "ichki auditni takomillashtirish o'zi nimaga kerak". Zamon shu qadar shiddat bilan rivojlanmoqdaki, 10-15 yil oldingi yangilik bugungi kun talabiga javob bera olmasligi mumkin, buning natijasida esa o'tkazilayotgan tahlil

davri muddatining o'tib ketishi, shuningdek natijalarning noxolis bo'lishga ham olib kelishi mumkin. Shu bois ham, ichki audit tahlilini o'tkazishda jahon standartlaridan foydalanish dolzarb masala deb hisoblayman. Zero ichki audit xizmati korxonalarining raqobatbardoshligi, faoliyati samaradorligi garovidir.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Dunyo bo'ylab iqtisodiy globallashtirish va integratsiyalashuv ortishi natijasida auditorlik faoliyati bo'yicha umumqabul qilingan xalqaro me'yorlar va standartlarga o'tishni va ularga rioya qilishni talab etadi. Auditorlik faoliyati evolyutsiyasi auditorlik tekshiruvlari sifatini oshirishda tahliliy amallar ulushining barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Ichki audit tahlili kunlik operatsiyalarini bajarilish va hujjatlashtirish jarayonida amalga oshiriladi, bu esa o'z navbatida ishdagi xato kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish uchun zarur choralarni ko'rish imkoniyatini beradi. "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, "ichki audit ishini ko'rib chiqish" ichki audit sifatida korxonada tashkil topgan, korxonada ijroiya organi va manfaatdor (mulkdorlar) tomonlari manfaatlarini himoya qilgan holda ishlaydigan, ichki me'yoriy hujjat va standartlar bilan tartibga solinadigan tizim tushuniladi. Hisob tuzish, yuritish va hisobot berishning belgilangan talablarga rioya etilishini, shuningdek, ichki nazorat tizimining faoliyatini yanada ishonchlilikini nazorat qilish tizimi tushuniladi.

Mavzuni chuquroq o'rganadigan bo'lsak, ichki va tashqi auditning asosiy maqsad deyarli bir xil bo'lib, faoliyatni nazorat qilishdan iborat. Lekin bu ikkisini o'rtasida bir necha farqlar bor va bu auditor xarakteriga aloqador. Tashqi audit - korxonaning ichki nazorat tizimini tahlildan o'tkazish, hisobotlar tizimini baholash, korxonaning buxgalteriya balansini tekshirishdan iborat. Tashqi audit tekshiruvdagi korxonaning bergan hisobot va balanslari muvofiq kelishi yoki kelmasligi, korxonaning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi va muayyan davrdagi faoliyatining natijasini baholashdan iborat. Mustaqil auditor firmalari chiqargan xulosalar yuqori tashkilotlarga, shuningdek, manfaatdor tomonlarga (aksiyadorlar, investorlar, kreditorlar va boshqalarga) taqdim etiladi, ushbu ma'lumotlardan ichki auditorlar ham foydalanshi mumkin.

Ichki audit tashqi auditdan farqli ravishda tashkil etilishi va belgilanishiga qarab, boshqacha bo'ladi. Ichki audit korxonada tarkibida mustaqil bo'lim sifatida uning har kunlik faoliyatini nazorat qilib boradi. Qabul qilingan muayyan qoidalarga asosan, ichki audit korxonaning o'z kapitalini samarali bajarishiga xizmat qiladi, eng avvalo endigina vujudga kelgan yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlashga yo'naltirilgan bo'ladi. Ichki audit - korxonada operatsiyalarini ichki kuch yordami bilan yaqindan kuzatish imkonidir hamda boshqaruv maqsadiga yetishish

kafolati. Ichki audit bajarilgan tahlil natijalari haqidagi ma'lumotlar bilan ta'minlab, bo'linmalarning ish faoliyatini, ularga vujudga kelayotgan muammo va kamchiliklarni hal qilish bo'yicha zarur tavsiyalarini beradi. Ichki audit tashqi audit bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi.

Ichki audit xizmati muayyan bir korxonaga yoki aksiyadorlik tijorat bank bo'limini nazorat qilishda dastavval quyidagi ishlar bajariladi:

- audit tahlilini o'tkazish bo'yicha ish reja tuziladi;
- tahlil o'tkazuvchilar ya'ni auditorlar ro'yxati shakllantiriladi hamda tahlilni o'tkazish ishlarning maqsadi va vazifalari belgilanadi;
- o'tgan davrdagi o'tkazilgan tahlil natijalari bo'yicha auditorlik xulosasi ko'zdan kechirilib, shular bo'yicha tadbirlarning bajarilishi ko'rib chiqiladi;
- tahlil olib borishda buyruqlar hamda kassa tekshiruvini amalga oshirish uchun guvohnoma tayyorlanadi.

TADQIQOT NATIJALARI

Bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlangan mamlakatlarda ichki audit masalalariga katta e'tibor qaratilgan ekan, bu borada xalqaro darajadagi ichki audit masalalariga oid me'yor va standartlari bilan tanishib chiqishimiz maqsadga muvofiq.

Xalqaro ichki auditorlar instituti (The Institute of Internal Auditors, IIA) mavjud bo'lib, unda tegishli audit standartlarini ishlab chiqish uchun mas'ul bo'lgan bo'linma mavjud.

Ushbu institut ichki auditor mutaxassisligini rivojlantirish, ichki audit me'yor va standartlarini tadqiq etish hamda ularni amalga oshirish, shuningdek jahon bo'ylab ichki auditorlarni qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan xalqaro kasbiy uyushma sanaladi. Ichki auditning xalqaro standartlari ichki auditni tayyorlash, ularning malakasini oshirish, yakuniy hujjatlarni tayyorlash va shakllantirishga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilaydi. Shuningdek, xalqaro standartlar umumiy ko'rsatmalar sifatida yoki ma'lum bir korxonaning ichki audit xizmati faoliyatining ichki standartlarini ishlab chiqishda asos bo'lishi lozim. Bu auditorlik tahlillarini olib borish, ularning natijalari va maslahat xizmatlarini ro'yxatdan o'tkazish, ichki auditorlarni qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish tartibiga qo'yiladigan yagona talablarni belgilaydi.

Kengash tomonidan o'z saytida e'lon qilingan "Audit Practice Alert No. 2013 yil 24 oktyabrdagi 11-sonli "Moliyaviy hisobot ichki nazoratni tekshirish bo'yicha maslahatlar" tayyor ichki hujjatlar bilan ishlashda xavflarni baholashga, shuningdek tashqi auditorlar ishlayotgan ichki auditorlarning tendensiyalari va obyektivligini baholashga bag'ishlangan.

"Ichki auditor" professional standarti ichki nazorat sohasida kadrlar tayyorlash va boshqarish tizimini ishlashga imkon beradi. Ushbu standartning amalga oshirilishi korxonalarining xalqaro talablarga javob beradigan zamonaviy ichki nazoratni shakllantirish imkoniyatini beradi, bu o'z navbatida global iqtisodiy sharoitida O'zbekiston korxonasi va tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirishga hissa qo'shadi.

Ichki audit faoliyatini yanada takomillashtirish, auditorlarning ish faoliyatini tekshirish zarurligini bartaraf etish va ichki tekshirish jarayonlari talablarga javob berishiga ishonch hosil qilish uchun va paytida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan buzilishlarni va ularning oqibatlarini tahlil qilish uchun FMEA tahlilidan foydalanish samarali. FMEA – ushbu tahlil ishlab chiqish faoliyatni sifatini oshirishning samarali vositasi bo'lib, faoliyatning zaif tomonlarini aniqlashga, vujudga kelish sabablarini aniqlashga, korxonasi xavfini baholashga imkon yaratadi. FMEA tahlilida quyidagi bir nechta vazifalar bartaraf etiladi:


- faoliyatdagi zaif tomonlarni aniqlash va ularning yechimi;
- sifatni yaxshilash imkoniyatlarini aniqlash;
- sinov-tajriba va texnologik ishlar hajmini kamaytirish;
- sifatni ta'minlashda mutaxassislarining harakatlarining ochiq oydin

ko'rinishini ya'ni ishning shaffofligini ta'minlash;

- texnologik jarayonni ishlab chiquvchilar ishining sifat tarkibini o'zgartirish;

- mahsulotni ishlab chiqish va texnologik jarayon o'rtasidagi hamkorlik uchun qulay muhitni ta'minlash.

FMEA tahlili ish faoliyatni o'tkazish texnologik jarayonni ishlab chiqishda mutaxassislarining harakatlarini tizimlashtiradi. Ichki auditni o'tkazishda FMEA tahlili uchun uning tarkibiy modelini tuzamiz:



1-rasm. Ichki audit jarayonining tarkibiy modeli

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda shuni aytish kerakki, korxonalar va tijorat banklarida ichki auditni jahon standartlari talablari asosida milliy standartimizni tashkil etish va uni takomillashtirish mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlari hamda banklarini raqobatbardoshligini mustahkam bo'lishi, shuningdek, ularning ichki va tashqi faoliyatining samaradorligiga turtki bo'ladi. Ichki audit biznes jarayonlarini va ularning moliyaviy xatarlarni samara nazorat qilish va boshqarishni baholashdan iborat. Ichki audit xizmati korxonaning boshqaruv organlariga korxonaning faoliyati nazorati va uni ishlashining obyektiv tahlili, baholash, xulosa hamda tavsiyalar va axborot bilan ta'minlashga yordam beradi. Ichki audit korxonalar va tijorat banklarining ichki nazorat tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib, u xatarlarni bartaraf etishga yoki kamaytirishga va ijro intizomini to'g'ri yuritishda qo'l keladi. Xulosam oxirida ichki audit xizmatini respublikamiz barcha aksiyadorlik jamiyatlaridagi ahamiyatini oshirish muhim masala deb hisoblayman va o'ylaymanki, yuqoridagi taklif va tavsiyalarim respublikamiz korxonalar va tijorat banklari amaliyotida foydalanilsa, ijobiy o'zgarishlarga olib keladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Murojaatnoma 2022-yil 20-dekabr
2. Ichki audit xizmati xodimlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish choratadbirlari" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 05.05.2021 yildagi 280-son
3. "Auditorlik faoliyati to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.02.2021 yildagi O'RQ-677-son
4. Orlova O.E. Ichki nazoratni tashkil etish muammosi // Buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – № 6.–2012